

UDK:633.174

## QORAQALPOG`ISTON SHAROITIDA PIYOZNING EKISH USULLARI VA HOSILDORLIGI YUQORI BO`LGAN NAVLAR HAMDA EKISH USULLARI

*D.Hayitboyev<sup>1</sup>**Yuldashev Suxrobjon<sup>2</sup>**<sup>1</sup>Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar  
instituti assistenti,**<sup>2</sup>Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar  
instituti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya;** Piyozni ekish usullari va ularning afzaliklari hamda ularni yangi usularda hosildorligini ko`paytirish usullari. Urug` sarfi va ularni ko`chatlari orqali ekish samaradorliglari.

**Kalit so`zlar.** Piyozni ekish usullari, ekish muddatlari, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xafsizliklarni taminlash hamda tuproq sutrukturasini yaxshilash.

Bunda ham 5 ta nav jumladan standart Kaba-132, Karatol, Oqdur, Lione va Volf navlarni tajriba sifatida ekildi. Piyozlar qator orasi 20x15 tuplar orasi qilib ko`chirib chiqildi. Ko`chatlar 5-6 kunda tutib ketdi va ularni yaxshilab suv berib meniral o`g`it berishimiz kerak bo`ladi. Piyozlarning o`sib rivojlanishi juda yaxshi bo`ldi. Tutib ketgandan keyin ikki haftadan ya`ni 11-may sanasida fenologik o`lchov tadbirlarini o`tkazildi unga ko`ra standart Kaba-132 navining bo`yi 46 sm, Karatol navining bo`yi 49 sm, Oqdur navi bo`yi 44 sm, Lione navining bo`yi 42 sm va Volf navining bo`yi 41 smni tashkil qildi. Ko`chat ekilgan vaqtdan 60-65 kun o`tgandan keyin bosh boylashni boshladi. To`liq pishish esa 20-iyul sanasiga to`g`ri keldi piyozlar yi`g`ishtirib olindi. Bu tajribam natijasida piyozlarning fenologik kuzatishda yaxshi o`sib rivojlangan hamda Karatol navi bo`ladi hosildorlikda yuqori natijani ko`rsatdi. Masalan erta tutib ketgan Karatol navi bo`ldi boshqalari esa keyin qaddini tikladi va keyingi ikkinchi o`rinni egalagan standart nav Kaba-132 navi bo`ldi. Bu navi ko`chat tayyorlashda juda qulay nav barg tuzilishlari yirik ko`chat qilib ko`chirish ancha qulay. Piyozchalari xam yirik va suvni boshqa navlarga nisbatan kam talab qiladi. Vegetatsiya davri ham 130-140 kuni talab qiladi ekan. Bizning iqlim sharoitga moslasha oladi va ekishni tavsiya qilib qolaman. Uchunchi o`rinni egalagan piyoz bu `Oq dur navi bo`ladi. Bu piyoz navi esa o`sish rivojlanish esa Karatol va Kaba-132 navlariga nisbatan pastroq natijani ko`rsatdi. Lekin bu navning afzaligi saqlovchanlik

jihatidan boshqa piyozlarga qarganda juda chidamli nav buni ham ekishni tavsiya qilib qolaman. Chunki bizlarda uzoq saqlanadigan piyoz navlari xam kerak. Oq dur piyozi uzoq vaqt saqlanganda o`zining xususiyatini yo`qotmaydi shu jihatdan ustun turadi. Volf va Lione navlar ham yaxshi ko`rsatkichlarni ko`rastdi va Qoraqolpog`iston tuproq-iqlim sharoitida ekishni tavsiya qilaman.

Piyozchalar orqali ekish; Piyozchalarni erta bahorda ekish yaxshi tamoni erta barra piyoz olish imkoni paydo bo`ladi. Bilamiz bahor faslida sabzavot mahsulotlarga talab juda yuqori bo`ladi va shu talabni qondirish uchun barra piyozlarni erta yetishtirishimiz kerak bo`ladi. Bu piyozchalarni yerga ko`chirgandan keyin 35-kunda tayyor bo`ladi. Mening ilmiy mavzuyim piyoz ekish usullari bo`ldanligi sababli piyozchalarni ham ekib ko`rildi. Ekish vaqtim 5-mart sanasida piyozchalarni ko`chirib chiqildi. Piyozchalar j tez o`sdi ekan bir haftada ko`k maysalarini ko`rsatib o`sa boshladi. Lekin tez-tezdan suvg`orilib turildi piyozchalari juda namlikga talabchan bo`ladi ekan.

Piyozchalar orqali erta bahorda ekildi (15.03) bunda pizchalari bilan ekilganda erta ko`k barra piyoz tayyor bo`ladi ekan. Ekkan vaqtdan boshlab 35-kunda barra piyoz tayyor bo`ldi. Uning bo`yi uzunligi (40-45 sm) atrofida bo`ldi. Lekin bosh baylash jarayoni juda sust rivojlandi. Faqat bu usulda yaxshi barra piyoz olish va sifatli urug` olish mumkin ekan.

Nóshdan piyoz yetishtirish; Piyoz etishtirishning boshqa usullariga nóshdan, mayda piyozboshlardan, kóchatdan barra piyoz etishtirish kabilar kiradi. Bazan kuzda (oktyabr - noyabr oylarlarida) yoki erta bahorda nósh piyoz (mayda piyozboplar) ekiladi. Nósh piyoz kuzda ektilgani maqbul, chunki mayda piyozboshlarni qishda saqlash kóp chiqitga chikishga olib keladi. Nósh piyoz pushtalarga yoki hosilsiz dalalarga (markyor tugallama bóyicha) bóynigacha botirib ikki qatorlab lenta shaklida ekkiladi. Bunda lentalar orasi 40-60 sm va qatordagi piyozlar orasi 10 sm dan qilinadi. Nóshdan bosh piyoz yetishtirish uchun ósuv davri mobaynida gulpoyalarni muntazam ravishda yulib turish kerak. Nóshdan ekilgan piyoz urug`idan etishtirilgan piyozga qaraganda begona o`tdan kam bo`ladi va yagonalanmaydi. Boshqa parvarishlash tadbirlari mudatda ótkaziladi. Piyoz parvarishi begona ótlarni yóqotish, qator oralarini ishlash va sug`orishdan iborat. Avgustda yo`gingarchilik boshlanmasdan piyozlar lavlagi kovlagichlar bilan yigib olinadi, so`ng quritiladi, barglari kesilib, katta-kichikligiga karab saralanadi. Mayda piyozboshlar 18-20°C harorat va 65-70 % havo namligi sharoitida saqlanadi. Kelgusi yili bahorda mayda piyoz (SUN-8) seyalkada qator oralari 45 sm dan qilib ekiladi. Ekish qalinligi va piyozning yirikligiga karab xar bitta metr erga 15-25 tadan piyozcha ekiladi, shunda gektariga 6-8 s dan 10-12 sgacha mayda piyoz ekiladi. Piyozni ósuv davridagi parvarishi, begona ótlarni yóqotish, qator oralarini yumshatish, oziqlantirish, sug`orish va gul poyalarni yulib turishdan iborat.

**Barra piyoz yetishtirish;** Barra piyoz - vitaminli mahsulot bólgani uchun erta bahorda, hali yangi sabzavotlar yoki vaqtda aholini u bilan taminlashning ahamiyati katta. Barra piyoz dalaga urug` yoki nósh piyoz ekish yóli bilan etishtiriladi. Barra piyoz urug`dan etishtirilganda urug` avgust o'rtalarida, nóshdan etishtirilganda esa sentyabrning oxiri oktyabrda ekiladi. Piyoz kuzda kókarib chikadi, qishlaydi, aprel oylarida esa hosili yig`ib olinadi. Piyozlar pushtalarga, 30-40 sm kenglikdagi lentalarga ekiladi, lenta orasiga urug` yoki mayda piyoz sochiladi va tuproq yoki chirindi bilan kómiladi. Yirik piyozboshlar tuproqqa botirib o'tqaziladi. Katta moydonlarda piyoz don-sabzavot seyalkasi 35-40 sm kenglikdagi lentalarga ekkiladi. Bunda selka soshniklari bitta-biriga yaqinroq (7-8 sm) o'rnatiladi. Har gektar erga 25-30 kg urug` yoki 2-4 t mayda piyoz ekiladi. Piyozlar kuzda bitta necha marta sug`oriladi. Qishki sovuqlar boshlanishidan odin esa pushtalarning ustiga chirigan góng sochib qo`yladi. Bu qishda uni sovuq urishdan saqlaydi, bahorda esa sochgan go`ng o`simliklarga oziq manbai bólib xizmat qiladi. Barra piyoz ildizi bilan sugurib yig`ishtiriladi. Yaxshi parvarish kilinganda har gektar erdan 350-400 st va undan ko`p hosil olinadi. Bosh piyoz urug`i etishtirish texnologiyasi. Birinchi yil urug`lik piyozbosh etishtirish uchun urug` erta bahorda ekilib, odatdagi texnologiya asosida sifatli parvarish qilinadi. Urug`lik uchun yaxshi etilgan, yirikligi, shakli va rangi navga xos piyozboshlari tanlab olinadi. Urug`lik piyozboshlar 2-8°C haroratda 70-80 havo namligida qorong`i joylarda yaxshi saqlanadi.

**Parvarishlash;** To'la unib chiqqandan so'ng o'simlik bo'yi 5-6 sm bo'lganda o'simliklar orasi 3-5 sm qoldirilib birinchi begona o`tdan tozalash va yagonalash o'tkaziladi, ikkinchi yagonalash va piyoz o'simlik bo'yi 15-20 sm bo'lganda o'tqazilib o'simliklar orasi 7-8 sm qoldiriladi. Agarda begona o'tlar ko'paysa, uchinchi o'toq ham o'tqaziladi. Jami o'suv davrida qator oralari KRN-2,8A, KRN-4,2, KOR-4,2 kul'tivatorlari bilan 4-5 martagacha yumshatiladi.

**Sug`orish;** Piyoz bargning sathi kichik bo'lganligi uchun suvni kam bug`lantiradi. Piyoz urug`ining unish va piyozboshi shakllanishida namni ko'p talab qiladi. O'suv davrining oxirida uning suvga talabchanligi keskin kamayadi. Bu davrda nam ko'p bo'lsa, piyozboshning etilishi kechikadi va yaxshi saqlanmaydi.

Avgustda ekilgan piyoz kuzdayoq, kech kuzda va bahorda ekilganlari esa aprel oyidan boshlab, bahorgi yog`ingarchilik to'xtagandan keyin sug`oriladi.

Er osti suvlari chuqur joylashgan bo'z tuproqli erlarda piyoz may, iyul oylarida xar 8-10 kunda sug`oriladi. So'ngra piyozbosh o'sishdan to'xtaganda har 12-15 kunda bir marta sug`orilib, pishishiga bir oy qolganda esa sug`orish to'xtatiladi. Yer osti suvi chuqur joylashgan bo'z sho`rlangan tuproqli yerlarga ekilgan piyoz, taxminan 13-14 marta, er osti suvi 1-2 m chuqurlikda joylashgan uchastkalarda 8-10 marta sug`oriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. ‘Himoyalangan yer sabzavotchiligi’ T-2018
2. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. ‘Sabzavotchilik’ Toshkent-2008
3. G.T.Erejeпова, A.S.Abdigapbarov, N.N. Ismoilova ‘Sabzavotchilik’N., ‘Bilim’2024. O`quv qo`lanma.